

## AXSIKENT YODGORLIGI ARXEOLOG OLIMLAR NIGOHIDA

**Xoldorov Jamshidbek**

Namangan viloyat tarixi va madaniyati  
davlat muzeyi ilmiy xodimi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola orqali Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani hududida joylashgan Eski Aksi (Axsikent) arxeologik yodgorligining arxeologik jihatdan o‘rganilish tarixi, ushbu yodgorlikda tadqiqotlar olib borgan arxeolog olimlarning faoliyati haqida to‘xtalib o‘tilgan. Bundan tashqari bugungi kunda arxeologiya parki uchun tanlangan ob’ektlarning o‘rganilish tarixi haqida ma’lumotlar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** Eski Aksi, qo‘rg‘on, shaxriston, rabod, shurf, tigel, tanga, “Ochiq osmon ostida muzey”, arxeologiya.

Bugungi kunda mamlakatimiz tarixini yoritishda arxeologik tadqiqotlarning ahamiyati tobora oshmoqda. Arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish yangi boshqichga ko‘tarilishi bilan bir qatorda aholining ilmiy tadqiqotlar va arxeologiya bilan xabardorligi ortib bormoqda. Ko‘plab arxeologik yodgorliklarni YUNESCOning butunjahon me’rosi ro‘yxatiga kiritish bo‘yicha amaliy ishlar kuchaytirilmoqda. Butun boshli tarixni o‘zida jam etgan arxeologik yodgorliklardan topilgan natijalarni shu joyning o‘zida “Ochiq osmon ostida muzey”lar tashkil etish uchun katta kuch va g‘ayrat safarbar etilayotgani so‘zlarimiz dalili bo‘la oladi. Shunday amaliy ishlar Namangan viloyatida Eski Aksi, Uchtepa II, Toshkent shahrida Mingo‘rik arxeologik yodgorliklarida amalga oshirib kelinmoqda.

2017-yildan boshlab shaxsan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtiroki bilan yodgorliklarni muzeyga aylantirish ishlari dastlab Eski Aksi arxeologik yodgorligi hududida amalga oshirila boshlandi. Arxeologik tadqiqotlar jarayonida o‘z

davrida Farg‘ona vodiysining eng yirik shaharlaridan biri ekanligi aniqlangan yodgorlikning bugungi kundagi umumiy maydoni 60 gettardan ziyodroq bo‘lib, 24 ta turli xil ob’ektda ilmiy qazish ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar jarayonida temirchilik mahallasi, jome’ masjidi, mudofaa devorlari bilan bir qatorda X asrga oid g‘aroyib ishlangan yerosti ichimlik suvi yo‘li ham topib o‘rganilgan.

Axsikent( $40^{\circ}53'06''\text{N}$   $71^{\circ}26'59''\text{E}$ )ning bugungi mahobatli xarobalari Sirdaryoning shimoliy qirg‘og‘ida, asosiy maydoni Gulqishloq va Shaxand qishloqlari hududida joylashgan eng yirik yodgorlik hisoblanib, “Farg‘ona Afrosiyobi” deb qiyoslanadi. Bu shahar yodgorligi Farg‘ona vodiysining ko‘p yillik poytaxti bo‘lganligi sababli har doim nafaqat tarixchilar, geograflar, arxeologlar balki oddiy aholining ham e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. O‘rta Osiyo tarixiga bag‘ishlangan qator ilmiy manbalarda moziy Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, balki butun Turkiston, Jahon tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan shaharlardan ekani xususida ham ma’lumotlar qayd etib o‘tilgan. Yodgorlik haqidagi birinchi ma’lumotlar venger etnografi Uyfalvi tomonidan 1877-yilda qayd etib o‘tadi<sup>1</sup>. Uning yozishicha: “To‘raqo‘rg‘ondan 6-8 km janubi-g‘arbda kichik Aksi qishlog‘i bor. Undan uncha uzoq bo‘lмаган joyda Bobur va qadimgi geograflar tomonidan qayd etilgan shahar qoldiqlari bilan aniqlanishi mumkin bo‘lgan Axsiket qadimiylar xarobalar joylashgan”<sup>2</sup>.

1881-yildan boshlab Axsikent atrofidagi hududlardan dastlabki topilmalar haqida ma’lumotlar paydo bo‘la boshlagan. Shu yili Axsikent shahar xarobalaridan topilgan turli xil davrga oid o‘n bitta topilma Osiyo muzeyiga topshirilganligi Fanlar akademiyasi tarix-filologiya bo‘limining 1881-yil 13-yanvardagi yig‘ilishi bayonnomasida qayd etilgan<sup>3</sup>. Oradan ko‘p o‘tmay 1884-yildagi “Туркестанские Ведомости” gazetasiga noma’lum muallifning “Namangandan” degan xati kelib tushadi va gazeta tomonidan chop etiladi. Xatda muallif yodgorlik hududida qazishma olib borib qimmatbaho buyumlar topgan bir necha shaxslar haqida ma’lumot berilgan edi. Bu voqealar ortidan mavjud holatni o‘rganish uchun kapitan A.I.Bryanov

<sup>1</sup> Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963. №3 198 с.

<sup>2</sup> Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.

<sup>3</sup> Анарабаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171

yuboriladi, u mahalliy Shahand qishlog‘ida istiqmat qiladigan fuqarolar tomonidan 2 ta oltin bilakuzuk topilgan ekanligini aniqlaydi<sup>1</sup>.

Bunday yangiliklardan so‘ng Peterburg universiteti professori N. Veselovskiy 1885-yilda Axsiketni o‘rganishga kirishadi va 15 ta joyda arxeologik shurf qazish natijasida ko‘p materiallar (sopol idishlar, lampalar, sferokonlar, shisha buyumlar, temir pichoqlar, tangalar) topishga muvaffaq bo‘ladi. Bundan tashqari u P. Uvarova tomonidan Toshkent muzeyida saqlanadigan xazina izlovchilar qo‘lidan olib qo‘yilgan Axsikent hududidan topilgan oltin narsalarni tavsiflab chiqadi<sup>2</sup>.

Axsiketnining tarixini qayta tiklashda albatta V. Bartoldning ahamiyati katta bo‘lganligi qayd eytib o‘tishimiz darkor. X asrda arab geograflari Ibn Xavqal va Muqaddasiy asarlarida mavjud shahar haqidagi ma’lumotlarni rus tiliga tarjima qilishga muvaffaq bo‘lgan olim Axsikent shahrida qal’a, shahariston, raboddan iborat bo‘lganligini, qo‘rg‘on hududida saroy va qamoqxona, shahristonda jome’ masjidi bo‘lganligini aniqlaydi<sup>3</sup>.

1913-yilda I. Kastanye tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilganiga qaramay A. Bryanov va N. Veselovskiy ma’lumotlariga hech qanday yangilik kiritilmagan. I. Kastanye aholi punktini o‘rganib chiqib, xarobalar rejasini tuzishga va Axsiketga tavsif berishga harakat qiladi. Olim tomonidan topilgan bir necha tangalarga A. Semenov ta’rif berar ekan, mis chaqa tanga Nasr II davrida hijriy 330(942)-yilda Axsiketda zarb qilinganligini, boshqa kumush dirham esa hijriy 480(1087/1088)-yilda zarb qilingan ekanligini ta’kidlab o‘tadi. L.Zimin esa I.Kastanyening amalga oshirgan ishlarining juda ahamiyatsiz ekanligini, uning sayohat haqidagi ma’ruzasining fan bilan umumiyligi kamligini va bu hisobotda yozilgan hamma narsaga juda ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish kerakligini qayd etib o‘tadi<sup>4</sup>.

Katta Farg‘ona kanali qurilishi jarayonida 1939-yil M. Masson Axsikentga tashrif buyuradi va bundan ikki ming yil avval bu yerda yirik shahar markazi bo‘lganligini; qal’a yuzasida madaniy qatlam joylashgan ekanligini qayd etib o‘tadi<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.

<sup>2</sup> Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.

<sup>3</sup> Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171

<sup>4</sup> Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.

<sup>5</sup> Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171 с.

1948-yilda A. N. Bernshtam tomonidan yodgorlik hududida tadqiqotlar olib borildi. Amaliy ishlar natijasida Axsikentning qo‘rg‘on, shahriston (Axsi IA) va ikkita raboddan iborat joy planini tuzib chiqildi. Olimning yakuniy fikriga ko‘ra shahardagi dastlabki rivojlanishlar hech bo‘lmaganda Kushonlar davridan boshlangan bo‘lsa ham Axsikentning gullab-yashnashi faqat VI-VIII asrlar va undan keyingi davrlarga (IX-X asrlar) to‘g‘ri kelar edi. Bu davrga kelib Axsikent shahri Farg‘ona vodiysining eng yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylanganligini qayd etib o‘tadi.

Keyingi yillar davomida (1957-1959-yillar) yodgorlik hududida G.Chulanov boshchiligidagi Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimlari tadqiqotlar olib borildi. Aholi punktini o‘rganish natijalari tufayli G.Chulanov ham boshqa tadqiqotchilari kabi Axsikent yodgorligi hududida dastlab qadimgi davrga oid shahar bo‘lgan degan xulosaga keladi. Tadqiqotchi XIII asr boshlarida butunlay vayron bo‘lgan shaharning shahriston rabod va kuchli qo‘rg‘onga ega bo‘lgan feodal shahar bo‘lganligini tasdiqlaydi va keyinchalik XV asrga kelib Temuriylar davrida Axsikent boshqa joyda tashkil topib, XVII asrgacha mavjud bo‘lgan degan xulosaga keladi<sup>1</sup>. 50-yillarning oxirida rassom A.Smirnov Axsikentga tashrif buyurib O‘rta asr sopol buyumlari va bronza buyumlarining boy kolleksiyasini to‘plashga muvaffaq bo‘ladi va uning to‘plamidagi bronza buyumlarini V. Voronina nashr ettirgan.

60-yillarning boshlarida Y.G‘ulomov boshchiligidagi S.Rahimov va I.Axrорovlardan iborat arxeologlar jamoasining yodgorlikning sharqiy rabod hududidan o‘rta asrlarga oid hammom qoldiqlarini ochishi bilan yodgorlikdagi tadqiqotlar salmog‘i ortib bordi<sup>2</sup>. 1967-1969 va 1976-1977 yillarda I.Axrорov tomonidan Ark, Shahriston (Axsi 1A, Axsi 1B) va g‘arbiy rabodda olib borilgan arxeologik ishlar natijada IX-X asrlarga oid turar joy binosi qoldiqlari bo‘lgan ayollar hammomi ham deyarli butunlay ochildi. Bundan tashqari turar-joylarning 10 dan ortiq nuqtalarida qazish va tozalash ishlari olib borilgan. I.Axrоров олинган барча ма’лумотларни умумлаштириб Axsikent uchta hududiy jihatdan ajratib, ko‘p vaqt

<sup>1</sup> Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3 198 с.

<sup>2</sup> Анараев А. Ахроров И. «Баня средневекового Ахсикента». ИМКУ 1991 №25 173 с.

mobaynida aholi turar-joy inshooatlaridan iborat: qadimgi, mo‘g‘ullardan oldingi va temuriylar davri xarobalaridan iborat bo‘lganligini e’tirof etib o‘tadi<sup>1</sup>. O.G.Bolshakov bu masalada o‘zining umumlashtiruvchi asarida Axsikent tavsifiga ba’zi aniqliklar kiritish maqsadida qo‘rg‘on sifatida ichki shahristonni (Aksi 1A) oladi<sup>2</sup>.

1976-yilda arxeologik yodgorlikning mikro madaniy qatlamlarini aniqlash maqsadida Shahriston I hududida shurf qazilgan bo‘lsa, I.Axrarov va A.Anarbayev tomonidan 1979-1980 yillarda bu qazishma kengaytiriladi va qalinligi 7.5 metr bo‘lgan 25 ta madaniy qatlamlar aniqlanadi. Bundan tashqari aholi punktidagi sakkizta joyda tadqiqot ishlari olib borildi. Shulardan beshtasida eski qazilmalarning davomi bo‘lgan bo‘lsa yana uchta yangi (IV, VI, IX) joyda qazishma ishlari olib borilib, mo‘g‘ullarga qadar Axsikent hayotining asosiy xronologik bosqichlarining tarixiy topografiyasini tavsiflovchi qimmatbaho materiallar qo‘lga kiritildi<sup>3</sup>.

G.Mirzaaliyev 1981-1986 yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida topilgan oshxona anjomlari kundalik hayotda ishlatiladigan turli xil ko‘rinishga boy ekanligini o‘rganib chiqadi. Axsiketning o‘rta asr sirlanmagan sopol buyumlari stratigrafiyasini o‘rganish shu kabi maishiy buyumlarning IX-XIII asr boshlarida o‘ziga xos rivojlanish tarixiga ega ekanligini ma’lum bo‘ldi<sup>4</sup>.

1982-1984 yillar davom etgan tadqiqotlarga A.Anarbayev rahbarlik qildi va Aksi 1B hududidagi yuqori qatlam qurilish davriga oid turar-joy binolarini o‘rganish maqsad qilinganiga qaramay juda yirik chiqindi tashlanadigan o‘ralar topib o‘rganildi<sup>5</sup>.

Axsikent shahar aholisinining moddiy turar-joylarini o‘rganish jarayonida axsiliklarning temirchilikda katta muvaffaqiyatga erishganliklarini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Tadqiqotlar olib borilgan deyarli barcha qazishma ob’ektlarida katta miqdorda temirni qayta ishslash va ajratib olish uchun ishlatilgan tigellar borligi mahalliy metallga ishlov berish rivojlanganligiga dalil bo‘la oladi. A.Kondakova

<sup>1</sup> Ахроров И «Археологические исследования городища Ахсикет в 1960 году» Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1962 №8 54 с.

<sup>2</sup> Анарабаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1 171 с.

<sup>3</sup> Анарабаев А. Иневаткина О. «Стратиграфическое изучение Шахристана I городища Эски-Ахси». ИМКУ 1990 №24 71 с.

<sup>4</sup> Мирзаалиев Г. «Об одной группе кухонной посуды Ахсикета» ИМКУ 25 1991 183 с.

<sup>5</sup> Анарабаев А. Ильясова С «Раскопки ремесленного квартала на городище Эски-Ахси». O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 2000 №27 212 с.

rahbarligidagi qo'shma tadqiqot laboratoriyasi 1984-yilda shunday topilmalardan birining metallografik tomonidan o'rganib chiqdi. Bu amaliyot O'rta Osiyoda qora metalldan yasalgan topilmalarda o'tkazilayotgan birlinchi tahlil edi<sup>1</sup>. Buning natijasi o'laroq Axsikent temirchilik ustaxonalari mufassal o'rganilib yakuniy xulosalarga kelingan. Shu yilgi tadqiqotlar natijasida IV ob'ektda tadqiqot ishlari olib borilib, u yerda G.Shishkina, O. Inevatkina va O. Papaxristu kabi arxeolog olimlarning XI-XII asrlarga oid metallurgiya va metallga ishlov berish ishlab chiqarish izlari va turar-joy binosi qoldiqlari topishganlarini qayd etib o'tish mumkin

Tadqiqotlar natijasida Eski Axsi shahar yodgorligi tagidan (8 ob'ekt) sopol idish namunalari va tosh quollarining topildi va davriy sanasi miloddan avvalgi XIX asrni tashkil etgan dehkonchilik qarorgohi mavjud bo'lganligi isbotini topdi. Uning aholisi yuzlab hektar yerlarda sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan degan xulosaga kelindi<sup>2</sup>.

Xitoy manbalarini tadqiq etish natijasida Eski Axsi yodgorligi o'rnida miloddan avvalgi III asrda 40 hektar maydonni egallagan Parkana (Yuan-cheng) shahri mavjud bo'lib, Dovon davlati poytaxti bo'lganligi aniqlandi. Shahar oqsoqollar kengashi tomonidan boshqarilgan va ular tomonidan shaharning tashqi va ichki siyosati nazorat qilinganligi hujjatlarda o'z aksini topgan<sup>3</sup>. Shahar keyinchalik Farg'ona vodiysining eng yirik shaharlardan biriga aylanadi. Manbalarda Farg'ona nomi bilan qayd etilgan va IX asrga kelib Axsi deb atala boshlangan. XII asrga qadar tangalarda Axsi-Farg'ona deb zarb etish davom etilgan. Tadqiqotlar shaharning toki XIII asrga qadar gavjum markaz bo'lganligini va shu davrdan boshlab zavolga yuz tuta boshlagan ekanligini isbotladi.

Arxeologik tadqiqotlarning natijasi o'laroq shahar tarixi va arxeologik imkoniyati umumlashtirilib Eski Axsi yodgorligi asosida yangi innovatsion "Ochiq osmon ostida" muzeylar parkini tashkil etish loyihasi ishlab chiqildi. Yodgorlikni muhofaza qilish

<sup>1</sup> Папахристу О. «К вопросу о функциональном назначении двух печей из эски Ахсы (Аксикет) в Фергане» О'zbekiston moddiy madaniyati tarixi 1999 №30 274 б.

<sup>2</sup> Анарбаев А. «Қадимги Фарғона давлати ва унинг пойтахти тарихидан лавҳалар». Водийнома 2016 №1 36 б.

<sup>3</sup> Хўжаев А. «Қадимги Фарғона давлатининг илк пойтахти хақида». Водийнома 2016 №2 27 б.

tadqiq etish direksiyasi tuzilib, 2019-yildan boshlab O‘zbekiston hududida birinchi marta arxeologik yodgorlik asosida muzey o‘zining ish faoliyatini boshladi. 2023-yil boshidan boshlab qurilishi rejalashtirilgan 9 ta “Ochiq osmon ostida muzey”dan to‘rttasini qurish uchun amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Bu orqali arxeologik yodgorlik asosida haqiqiy tarix bilan mehmonlarni tanishtirish va bunday yodgorliklarni turizm markazlariga aylantirish rejalashtirilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Анарбаев А. «Қадимги Фарғона давлати ва унинг пойтахти тарихидан лавҳалар». Водийнома 2016 №1.
2. Анарбаев А. «Ахсикент в древности и средневековье». СА 1988 №1.
3. Анарбаев А. Ахроров И. «Баня средневекового Ахсикента». ИМКУ 1991 №25.
4. Анарбаев А. Иневаткина О. «Стратиграфическое изучение Шахристана I городища Эски-Ахси». ИМКУ 1990 №24.
5. Анарбаев А. Ильясова С. «Раскопки ремесленного квартала на городище Эски-Ахси». O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 2000 №27 212 с.
6. Ахроров И. «Археологические исследования городища Ахсикет в 1960 году» Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1962 №8.
7. Мирзалиев Г. «Об одной группе кухонной посуды Ахсикета» ИМКУ 1991 №25.
8. Папахристу О. «К вопросу о функциональном назначении двух печей из Эски Ахсы (Ахсикет) в Фергане» O‘zbekiston moddiy madaniyati tarixi 1999 №30.
9. Хўжаев А. «Қадимги Фарғона давлатининг илк пойтахти ҳақида». Водийнома 2016 №2.
10. Чуланов Г. «Городище Ахсикент». СА 1963 №3.